



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 14-noyabr

644-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 28-oktabrdagi 712-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 546-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni aniqlash hamda ular bo‘yicha axborot olish tartibini takomillashtirish orqali davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini yanada kengaytirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 28-oktabrdagi 712-son qarori va Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-noyabrdagi 546-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 28-oktabrdagi 712-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 12-noyabrdagi 546-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-oktabrdagi 712-son qarori bilan:

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda — nizom) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

ariza berish tartibida mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarni aniqlashi;

tovarlarning mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilganligini aniqlash bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazishi;

mahalliy ishlab chiqarilgan tovar to‘g‘risidagi sertifikatni rasmiylashtirishi;

tovarlarni mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilganligini aniqlash tizimi haqqoniyligini ta‘minlashda jamoatchilik nazoratini o‘rnatishi;

mahalliy mahsulotlar va ishlab chiqaruvchilar reestrini yuritish tartibi;

Elektron kooperatsiya portalida hamda davlat xaridlari elektron tizimlari operatorlarining “Milliy do‘kon” sahifalarida mahalliy ishlab chiqarilgan tovar to‘g‘risidagi sertifikat asosida mahsulotlarni joylashtirish va savdolarida faqat ushbu sertifikatga ega tadbirkorlik subyektlarining ishtirok etishini bosqichma-bosqich amalga oshirish muddatlari 2-ilovaga muvofiq belgilanganligi;

Vazirlar Mahkamasining “Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Raqamli transformatsiya markazining elektron kooperatsiya portalida axborotni joylashtirish va xaridlarini amalga oshirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 30-sentabrdagi 833-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov